



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko'chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94, (76) 221-74-81

2022 - yil 19 - may

VI-51-113-8-0-K/22

Surxondaryo viloyati hokimligi

### **Qumqo'rg'on tumanidagi "Islomobod", "Arig'oshgan" va "Joziba" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi Guliston, Gazko'cha hamda Podaxona aholi punktlari nomlarini o'zgartirish to'g'risida**

"Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha tuman komissiyasining 2021-yil 1-martdagi 0069/01-33-son "Tumandagi "Islomobod", "Arig'oshgan" va "Joziba" mahalla fuqarolar yig'inlaridagi Guliston, Gaz ko'cha hamda Podaxona aholi punkti nomlarini o'zgartirish to'g'risida"gi, Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha viloyat komissiyasining 2021-yil 27-iyuldagi 17-06/477-son "Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Qumqo'rg'on tumanidagi ayrim geografik obyektlarni qayta nomlash bo'yicha Davlat ekspertizasi xulosasi haqida"gi yig'ilish bayonlari ma'qullansin.

2. Tumanda nomlari o'zgartirilgan aholi punktlarining ro'yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Statistika boshqarmasi (U.Alimov) nomlari o'zgartirilgan aholi punktlarining elektron bazasini shakllantirish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Viloyat qurilish bosh boshqarmasi (K.Eshmatov) hududlarda nomlari o'zgartirilgan aholi punktlarini yangi nomlari yozilgan ko'rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o'rnatilishini ta'minlasin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Ishonch" televideniyesi (A.Qodirov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To'rayev), "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni

ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

**Sessiya raisi**



**Bobolov T.A.**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat  
Kengashining  
2022 yil 19 maydagi  
VI-51-113-8-0-K/22-son qaroriga  
1-ilova

**Qumqo‘rg‘on tumanida nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining**

**RO‘YXATI**

<b>T/r</b>	<b>Geografik obyektning turi</b>	<b>Joylashgan joyi</b>	<b>Geografik obyektning amaldagi nomi</b>	<b>Geografik obyektning o‘zgartirilgan nomi</b>
1.	Aholi punkti	“Islomobod” MFY	Guliston	Obodyurt
2.	Aholi punkti	“Arig‘oshgan” MFY	Gazko‘cha	Zakovat
3.	Aholi punkti	“Joziba” MFY	Podaxona	O‘rtaquduq